

## **“O‘zarxiv” agentligi Bosh direktori A.Abdullayevning Navro’z bayrami munosabati bilan yo’llagan bayram tabrigi**

**Aziz hamkaslar!**

“O‘zarxiv” agentligi barcha yurtdoshlarimizni shu bilan bir qatorda arxivchi hamkaslarimizni bahor bayrami, yangilanish, yasharish shodiyonasi bilan samimiyl qutlaydi.

Aynan shufasllarning kelinchagi bo‘lgan bahorda xalqimiz yangi kun boshlanishini orziqib kutadi. Chunki ushbu bayramda xalqimizning qon-qoniga singib ketgan betakror qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan keksalarni e’zozlash, qariyalarni tabarruk duolarini olish, yolg‘iz va mehr-muhabbatga muhtojlarga muruvvat ko‘rsatish, qarindosh, yor-birodarlarni holidan xabar olishga alohida e’tibor qaratadilar. Bayram dasturxonlarini yozib, yurtimizning tinchligi va mustaqilligimiz abadiy bo‘lishi, yurtboshimizning umrlari uzoq, rizqlari ulug‘ bo‘lishini Yaratgandan so‘rab, duo qiladilar.

Ana shunday ezgu hislatlarni xalqimizga in’om etayotgan bu faslga o‘zgacha shukuh, o‘zgacha quvonchlar olib kelishda Navro’z bayramining o‘rni va ahamiyati beqiyos!

Navro’zi olam barchangizga bahoriy kayfiyat, baxt va omad, sevgi-muhabbat olib kelsin, eng ezgu orzularingiz ro‘yobini ko‘rish baxtiga muyassar bo‘ling!

Xonardonlarimizdan mehr-oqibat, fayzu baraka arimasin!

Tabarruk otalarimiz, munis onalarimizning umrlari uzoq bo‘lsin, aka-ukalarimiz, opasingillarimizning ko‘nglidagi pok niyatlari ijobat bo‘lsin!

Farzandlarimiz kamolga erishsin!

Navro’zi olam barchamizga muborak bo‘lsin!

Hurmat va ehtirom ila,

Bosh direktor A.X.Abdullayev!

Toshkent shahri,  
2016 yil 18 mart